



Ajratib ko'rsatilgan harflarni o'qing. Abu Nasr Farobiyning aytgan hikmatli so'zini izohlang.

*Haayrimbqirrvt rkaixshrieskua isvbuykyoer
fnoi yfmsutkbanmdmtaslaimeogpadlalgax
mqorg'ri,teamrtbrieyaayeofdlomdofg'giuiv
yaefyoabxns hdixtuylkqh votdkohb,yfbanzd
iylfaotogkamaeygiaqbro'vltramxorg'esiuki
evroapk.*



Maydondagi bolalar

Mahmud Murodov

Ishtan qattiq charchab qaytardim. Negadir **ikki chakkam zirqirab**, boshim og'irdi. Yo'lni biroz bo'lsin qisqaroq qilish uchun qishloq ahli dam oladigan bog' oralab o'tishni ko'zlab, shu tomonga burildim. Bog' darvozasi oldidagi "Matbuot" do'konidan gazeta va jurnal oldim-da, yo'limni davom ettirdim. Yo'ldan sal ichkarida – bolalar maydonchasi. U yerda bir nechta bola yangi to'kilgan qum uyumida o'ynab o'tirishardi. Bolalarning qum o'ynab o'tirishimi, yo ular qumda yasayotgan qum shakllarimi diqqatimni o'ziga tortdi. Ular tomonga yurdim. **Boshimni ko'tarib**, ko'm-ko'k osmonga tikildim. Osmon qanday tiniq, qanday musaffo. Shunda qulog'imga qum

o'ynayotgan bolalarning **uzuq-yuluq gaplari** chalinib qoldi.

– Bilasanmi, Anvar, – dedi to'lachadan kelgan bola. – Mening dadam – quruvchi. Mana bu ko'chamizda qurilgan uylar bor-ku, shularni qurgan. Men ham dadamday quruvchi bo'lsam, qishlog'imizga bolalar markazini qurib beraman. Unda hamma narsa – sport zali ham, suzish havzasi ham, shaxmat-shashka xonalari, kutubxona, kompyuter o'yinlari xonasi ham bo'ladi, yana zarur to'garaklar uchun xonalar ham bo'ladi.

– Men, men, – derdi Elbek degan sal novchadan kelgan, qoramag'iz bola. – Senga o'xshab quruvchi bo'lmayman. Chegaralarimizni qo'riqlayman. Urushni, urush istab chegaramizni buzuvchilarni jazolovchi yurt posboni bo'laman.

– Orzu, orzulash – juda yaxshi-da! – deydi anchagacha jim qolib, nimalarnidir o'ylab o'tirgan G'ani. – Mening orzum – bobomday, dadamday ustoz bo'lish. O'qisam, ular ishini davom ettirsam, deyman. Qishlog'imiz bolalarini o'qitsam, deyman.

Bolalar qum uyumi yonida o'ynashar, shu bilan birga o'zlarining shirin orzularini bayon etishardi. Ajabo, ularni tinglab o'zimni butunlay yengil sezdim. **Ko'z oldim ravshanlashdi.** Boyagi bosh og'rig'im ham, ishdagi charchog'im ham unutilganday bo'ldi. Turib qolgan joyimdan asta qo'zg'alib, uyga qaytdim.

Bolalarga tikilib, gap-so'zlarini tinglab, tanamga kuch-quvvat, bosh og'rig'imga davo – malham topganday edim. **Boshimni, qaddimni g'oz tutib,** uyim tomon **qushday yengil va dadil yurib** ketdim...



1. Hikoya qanday voqea bilan boshlandi?
2. Maydondagi bolalar nima haqida suhbatlashayotgan edilar?
3. Anvarning orzusi haqida soʻzlab bering.
4. Nima uchun Elbek quruvchi boʻlishni xohlamadi?
5. Shirin orzu deganda nimani tushunasiz?
6. Kelajakda kim boʻlmoqchisiz? Siz tanlagan kasb egasida qanday fazilatlar boʻlishi kerak?



Hikoyadan bolalarning gaplarini topib oʻqing.
Hikoyada ajratib koʻrsatilgan soʻzlar mazmunini tushuntiring.
Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.



Har bir ustundan mos soʻzlarni tanlab, maqollarni oʻqing.

Hunarli

ishini

temirchi

buzar.

Uchqundan

kishi

nomard

bilmas.

Yamoqchining

tuzar

och

boʻlmas.

Mard

qoʻrqqan

suvoqchi

qolmas.

Hikoya mazmuniga mos maqollar ayting.



Hikoyani oʻqing va shaxsini oʻzgartirib, qayta gapirib bering.